

PEDAGOGNING MAQOMI, JAMIYATDA TUTGAN O'RNI

*Tirkashev Nodir Ilxomovich*

*O'z-FinPI Pedagogika kafedrası o'qituvchisi*

*Tirkasheva Gulyora Ilxom qizi*

*Oqdaryo tumani 2-son umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagogning jamiyatda tutgan o'rni, davlatimiz tomonidan pedagoglarga berilayotgan etibor va "Pedagogning maqomi to'g'risida" gi qonun haqida, uning imkoniyatlari to'g'risida fikr yuritilgan

**Kalit so'zlar:** Daraja, qonun, senat, palatasi, maxsus, prinsip, regulyatsiya.

**Статус учителя, его роль в обществе.**

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль педагога в обществе, внимание, уделяемое педагогам нашим государством, закон «О статусе педагога», его возможности

**Ключевые слова:** Уровень, закон, сенат, палата, специальный, принцип, регулирование.

Ustoz-murabiylik kasbi qadimdan ulug'langan kasblar sirasiga kiradi. Rivoyat qilishlaricha, bir sovdagarning uch nafar o'g'li bo'lib, farzandlari sovdoto'rtiqda tajribali ammo ilmda no'noq edi. Savdagar garchand urunmasin farzandlarini ziyoli qilib tarbiyalay olmadi. Savdagar uning nasli ilmsiz bo'lib qolishini istamadi. U donishmand qoshiga borib garchand urunsam ham farzandlarim ilmda no'noq va ilmsiz. Qilgan amallarim zoya ketdi, hechqissa nabiralarim ilmi, ziyoli inson bo'lishi kerakligini va buning uchun qay yo'lni tutsam ekan deb maslahat so'radi. Donishmand sen yashaydigan mahallangda biror o'qituvchi yashaydimi deb so'radi? Yo'q deb javob berdi sovdagar. Donishmand nabiralaring ilmi bo'lishini xoxlasang mahallangda sharoit qilib o'qituvchi ko'chirib kel. Agar o'qituvchi ko'chib kelishni xoxlamasa, o'zing o'qituvchi yashaydigan mahallaga ko'chib bor degan ekan. Savdagar nabiralarim ilmi bo'lsin deb o'qituvchi yashaydigan mahallaga ko'chib ketgan ekan.

**Asosiy qism:** Azaldan o'qituvchilik kasbi sharafli kasb hisoblangan. Xalqimizda ustoz otangdek ulug' degan naql bejiz emas. Ustoz ziyo sochuvchi bo'lsa oliygoh ziyo maskanidir. **Jamiyatni inson o'zgartiradi, ta'lim esa insonni o'zgartiradi.** Ta'limning markazida esa, avvalambor o'qituvchi turadi. Ustoz va muallimlar hurmati haqida shu choqqacha ko'p va xo'p gapirib kelinayotgan bo'lsa-da, uning hurmatini joyiga qo'yish borasida shu kunga qadar amaliy tashabbus ko'rsatilmagan edi. Endilikda esa, Konstitusiyada o'qituvchining jamiyatda tutgan

yuksak o‘rnini yuqori darajada e‘tirof etib, muhrlab qo‘yish taklif etilmoqda<sup>1</sup>. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘z nutqlarida “ Konstitutsiyamizda ilk bor o‘qituvchi maqomi alohida belgilanib, ta‘lim tizimini rivojlantirish davlatning bosh vazifalari qatoriga kiritilgani bejiz emas. Chunki jamiyat hayotida o‘qituvchining o‘rni va ta‘siri oshsa –maktabning obro‘si oshadi, ilm-fan, ta‘lim va tarbiya sohasining qaddi ko‘tariladi, muallimning obro‘-e‘tibori esa millatning, butun xalqning obro‘-e‘tiboridir<sup>2</sup>” -deb o‘qituvchining jamiyatda tutgan o‘rniga baho bergan edi.Ustoz-murabiyilarga bo‘lgan hurmat davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Pedagogning maqomi to‘g‘risida, qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 1-avgustda qabul qilingan. Senat tomonidan 2023-yil 29-sentabrda ma‘qullangan O‘zbekiston respublikasining qonuni qabul qilindi. Pedagogning maqomi to‘g‘risida qonunni ,

**1-moddasi. “Pedagogning maqomi to‘g‘risidagi qonunchilik”deb nomlangan bo‘lib** tahlil qilsak, mazkur qonunchilik, O‘zbekiston Respublikasi hududida pedagoglarning huquqiy maqomini belgilovchi asosiy hujjatlar va qonunlardan iborat ekanligi ta‘kidlanadi. Qonunchilikning ichki normativ-huquqiy aktlaridan tashqari, xalqaro shartnomalar bilan ham bog‘liq ekanligidir. Ya‘ni, agar xalqaro shartnomalarda O‘zbekistonning pedagoglarning maqomi bilan bog‘liq qonunlaridan farq qiladigan qoidalar mavjud bo‘lsa, u holda xalqaro shartnoma qoidalari ustun hisoblanadi. Bu prinsip, xalqaro huquqning ichki qonunchilikka ta‘sirini ko‘rsatadi va O‘zbekistonning xalqaro majburiyatlariga hurmat bilan yondashilishini ta‘minlashga qaratilgan. Pedagoglarning huquqiy maqomini tartibga solish uchun xalqaro shartnomalar va ichki qonunchilikning uyg‘unligi zarurligini bildiradi. Bu, pedagoglarning huquqiy holatini belgilashda, nafaqat milliy qonunlarni, balki xalqaro yuridik hujjatlarni ham hisobga olish kerakligini anglatadi.

**2-modda. “Ushbu Qonunning qo‘llanilish sohasi”** tahlili, ushbu modda O‘zbekiston Respublikasining pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari va faoliyatining asosiy kafolatlarini tartibga soluvchi qonunining qo‘llanilish doirasini aniqlaydi. Qonun, ta‘lim tashkilotlarida ishlovchi pedagoglarga nisbatan qo‘llaniladi, ya‘ni davlat va nodavlat ta‘lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan barcha pedagoglarga taalluqli.Shuningdek, modda qonunning ba‘zi moddalarining ma‘lum sharoitlarda qo‘llanilmasligini ko‘rsatib o‘tadi. Masalan, pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxslar, ammo ta‘lim tashkilotlarida ishlamaydigan yoki harbiy ta‘lim muassasalarida pedagogik faoliyat yuritayotgan harbiy xizmatchilarga nisbatan, ba‘zi qonun moddalarining amal qilmasligi belgilangan. Bu yerda qayd etilgan maxsus istisnolar, qonunning ba‘zi jihatlari faqat aniq shartlar va sohalarda amal qilishini ta‘minlashga qaratilgan.

<sup>1</sup> <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/uqituvchining-jamiyatdagi-urni-millatning-ertangi-kunini-belgilaydi>

<sup>2</sup> o‘zbekiston respublikasi prezidentining “o‘qituvchi va murabbiylarga bayram tabrigi”. toshkent, 2023 yil 29-sentabr. daryo.uz/q/.

**3-modda. “Pedagogning maqomi” tahlili,** ushbu modda pedagogning maqomi haqida batafsil ma'lumot beradi va pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari hamda faoliyatining asosiy kafolatlarini ta'minlashga yo'naltirilgan qonuniy asoslarni belgilaydi. Tahlil qilib ko'raylik: Pedagog — bu ta'lim va tarbiya sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi, tegishli ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan jismoniy shaxs. Pedagogning kasbiy kompetensiyasini va ma'naviy-axloqiy sifatlarini birlashtirgan holda, ta'limga nisbatan to'liq javobgarlikni anglatadi. Pedagog olim Djon Lokk takidlaganidiki o'qituvchi faoliyatining eng muhim jihatlari ishbiarmonlik, mo'tadillik, g'ayrat — shijoatlilik, ehtiyotkorlik kabi sifatlarga ega bo'lgan va o'ziga ishonch pedagog faoliyatida juda muhim hisoblanadi<sup>3</sup>. Pedagogning O'zbekiston Respublikasida maqomi tan olinishi va davlat tomonidan himoya qilinishini ta'kidlaydi. Pedagogning ish faoliyatini yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ijtimoiy himoya va huquqlari uchun kafolatlar berilishi bu qonunning asosiy maqsadlaridan biridir. Bu nuqtada, pedagogning jamiyatdagi o'rni va obro'si davlat tomonidan ta'minlanishi zarur ekanligi ko'rsatilgan.

**Pedagogning huquqlari va ishchanlik obro'si:** Pedagogning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'ladi. Bu davlat tomonidan pedagoglarning huquqlarini himoya qilish va ularning obro'sini oshirishga qaratilgan tashabbusdir. Pedagogning ish faoliyatini samarali amalga oshirishi uchun huquqiy kafolatlar berilishi, masalan, mehnat shartnomasi, ijtimoiy himoya va ta'limda tenglikni ta'minlash zarurati ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan. pedagogik faoliyatni samarali boshqarish va regulyatsiya qilish uchun mas'ul **Ta'lim vazirliklari** hisoblanadi.

**Kasbiy daraja va talablar:** Pedagogning kasbiy darajasi va talablar Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatorida, shuningdek, pedagogning kasbiy standartlarida belgilanadi. Bu pedagoglar uchun aniq kasbiy mezonlar va standartlar yaratishni anglatadi, shunda har bir pedagogning bilim darajasi va malakasi aniq mezonlarga mos kelishi kerak bo'ladi.

**Qayta tayyorlash:** Moddaning oxirgi qismida pedagogik oliy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o'tganidan keyin ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi berilishi mumkinligi ko'rsatilgan. Ma'lumoti oliy ixtisosligi to'g'ri kelmaydiganlar uchun imkoniyatlar yaratishni anglatadi, shuningdek, qayta tayyorlash kurslari orqali ularning pedagogik faoliyat olib borishga tayyorlaydi.

**Zarurat bo'lganda:** oliy ma'lumoti bo'lmagan boshqa mutaxassislarni amaliy va

<sup>3</sup> [Podlasie I.P. Pedagogika / Kniga 1. — M.: Vldos, 2003. c-5](#)

qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazish uchun jalb etishi mumkin<sup>4</sup>. Professional ta'lim tashkilotlari, ishlab chiqarish ta'limi ustalarini va tegishli bilim hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan boshqa mutaxassislarni jalb etish imkoniyatiga ega bo'ladi. 2023-yil 1-avgustda qabul qilingan Pedagogning maqomi to'g'risidagi qonun pedagoglarning huquqiy maqomini belgilab, ularning ish faoliyatini himoya qiladi. Bu qonun pedagoglarning kasbiy faoliyatini normativ-huquqiy jihatdan tartibga solish, ularning huquqlari va majburiyatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Qonun pedagogning sha'ni va qadr-qimmatini jamiyatda yuqori tutishni maqsad qilgan. Pedagogning maqomini va kasbiy faoliyatini yuridik jihatdan mustahkamlashga qaratilgan. Ta'lim tizimida pedagoglarning professional darajasini belgilash, ularning huquqiy himoyasini ta'minlash va tayyorgarlikni yangilashni o'z ichiga oladi. Bu pedagoglarning jamiyatdagi obro'sini oshirishga xizmat qiladi va ta'lim sohasida sifatni yaxshilashga yordam beradi. Pedagogik faoliyatning malakali va ijtimoiy himoyalangan shaxslar tomonidan amalga oshirilishi ta'lim sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Davlatimizning pedagoglarga bo'lgan hurmati mas'uliyat hissini uyg'otadi. O'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishni, o'z ustida tinimsiz ishlashni va izlanishni<sup>5</sup> taqozo qiladi.

Shuningdek, xalqaro me'yorlarga mos ravishda ichki qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan. Pedagoglar uchun ta'limning sifatini oshirish, malakali mutaxassislarni tayyorlash va yangi avlodni ilm bilan ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/uqituvchining-jamiyatdagi-urni-millatning-ertangi-kunini-belgilaydi>
2. o'zbekiston respublikasi prezidentining "o'qituvchi va murabbiylarga bayram tabrigi". toshkent, 2023 yil 29-sentabr. daryo.uz/q/.
3. *Podlasie* I.P. Pedagogika / Kniga 1. — M.: Vlados, 2003. c-5
4. <https://lex.uz/docs/-6786401>
5. <https://jica.innovascience.uz/index.php/jica/article/view/560/497>

<sup>4</sup> <https://lex.uz/docs/-6786401>

<sup>5</sup> <https://jica.innovascience.uz/index.php/jica/article/view/560/497>